

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11120139>

OILADA BOLALAR MEHNAT TARBIYASINI TASHKIL ETISH

Usanov Sherzod Abdulaxatovich

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti
Pedagogika kafedrasi katta oqituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada oilada bolalarni mehnat tarbiyasi masalalari ko‘rib chiqiladi, shuningdek, ota-onalarning bolalarda mehnatga muhabbat uyg‘otish, mehnat fazilatlarini singdirish asoslanadi.

Kalit so‘zlar: oila tarbiyasi, ota-onsa, farzandlar, mehnat tarbiyasi, mehnatga muhabbat, fazilatlar va boshqalar.

Аннотация. В настоящей статье рассматриваются вопросы трудового воспитания детей в семье, а также обосновываются педагогические задачи родителей в воспитании у детей любви к труду, привитие трудовых качеств и т.д.

Ключевые слова: семейное воспитание, родители, дети, трудовой воспитание, любовь к труду, качества и т.д.

Annotation: In this article described problems of labour education of children in the family, and also justified pedagogical tasks of parents in education of children of love to work and etc.

Key words: family education, parents, children, labor education, love of work, qualities, etc.

Oilada ota-onalarning bolalarni mehnatga ko‘niktirish, jalg qilish ilgaridan davom etib kelayotgan milliy oilaviy an’analardan biridir. Oilada bolalarni mehnatga ko‘niktirish va jalg qilish, mehnatni sevishga o‘rgatish, mehnat ko‘nikmalari va odathlarini shakllantirish hamda amaliy mehnatga tayyorlashda ilk oilaviy tayyorgarlik mifiktabini o‘tab kelgan va bundan keyin ham shunday bo‘lib qoladi. Hozir oilada bolani mehnatga ko‘niktirish, jalg qilish, o‘rgatish, mehnatga tayyorlash, komil insonni shakllantirishning, shuningdek, insonning barqaror turmushini oila va ijtimoiy hayotni davom ettirishning zaruriy sharti bo‘lib qolmoqda. Shuning uchun ham oilada bolani mehnatga ko‘niktirish, jalg qilish va o‘rgatish oila pedagogikasida dolzarb ijtimoiy muammo bo‘lib qolmoqda.

Xususan, «Avesto»da oilada bolalarni mehnatga ko‘niktirish va jalb qilish haqida: «Bolalarni yoshlik paytidanoq daraxt ko‘chatini o‘tqazish, uy-ro‘zg‘or qurollari bilan shug‘ullanishga o‘rgatish shart»[1] -deb o‘rinli ta’kidlangan. Shundan kelib chiqib, oilada bolani mehnatga ko‘niktirish va o‘rgatish, jalb qilish ijtimoiy ahamiyatga ega va bu mas’uliyat ota-onalar zimmasiga yuklatiladi.

Oilada bolalarni mehnatni bajarishga o‘rgatish ko‘nikmasi ularni kelajakda inson uchun kerakli mehnat ko‘nikmalarini o‘z vaqtida shakllantirishga, ayniqsa, qo‘l-oyoq harakatlarini to‘g‘ri bajarishga o‘rgatish bilan amaliy mehnatga tayyorlab boradi.

Kaykovusning «Qobusnoma» asarida hunarning afzalligiga to‘xtalib kishini mehnat qilishga undar ekan, «Agar mehnat qilib badanni o‘zingga bo‘ysundirmasang, sog‘lom va baland martabali bo‘la olmaysan»[2] -deb insonni mehnat qilishga, odatlanishga da’vat qilgan. Ayniqsa, inson mehnat qilmay baland martabali bo‘la olmaydi degan pedagogik g‘oya ilgari surilgan.

Alohibda ta’kidlash lozimki, mehnatsiz kelgan boylik har qanday kishini, har qanday oilani va har qanday jamiyatni buzadi, har qanday muqaddas narsani qadrsizlantiradi. Mehnat jarayonida bolada do‘stlik, hamkorlik, bir-birini qo‘llab-quvvatlash, jamoa bo‘lib ishlash, mehnat ko‘nikmalari, o‘zaro hurmat kabi insoniy sifatlar shakllanadi.

Hozir oilada bolalarni mehnatga jalb qilish va ko‘niktirish, mehnatni sevish, topshirilgan ishga mas’uliyatni sezish, ota-onalar tomonidan o‘rgatilayotgan mehnat ko‘nikmalarini o‘rganish, boshlangan ishni oxiriga yetkazdirish, ishda sabotli, matonatli bo‘lish, mehnatda qatnashish xohishini hosil qilish, mehnatga ongi munosabatni, mehnat ahliga hurmatni tarbiyalash kabi mehnat sifatlarini shakllantirishda amaliy ahamiyatga ega.

Bolalarni mehnatga ko‘niktirish va jalb qilishda ota-onalarning o‘z farzandlari bilan birga sharoitida mehnat qilishi oila tarbiyasida eng samarali, foydali an’analardan biri hisoblanadi. Ota-onalar bolalari bilan quyidagi yo‘nalishlar, ya’ni: oila tomorqasida, uy va hovlini yig‘ishtirish, tozalash, uy-joy qurish, ovqat tayyorlash, xizmat ko‘rsatish, yetishtirilgan hosilni yig‘ishtirish, uy parrandalari va hayvonlarini parvarish qilish, dehqon fermer-xo‘jaliklarida bajariladigan ishlarda birga ishlaydilar. Ana shu ishlar oila sharoitida bolani mehnatga ko‘niktirish va jalb qilish orqali amalga oshiriladi. Oilada bolalar bilan birga ishlash, ularni mehnatga ko‘niktirish va jalb qilishda kerakli mehnat ko‘nikmalarini shakllantirishda, ota-onalar asosiy rol y o‘ynaydi. Ota-onalar bolalarni o‘z vaqtida mehnat jarayonida kuzatuvchi, xizmat ko‘rsatuvchi, yordamchi sifatida va qisman mustaqil mehnat faoliyatlarida ularga oila mehnatining aniq bir sohalari bo‘yicha avval tushuncha, bilim, ma’lumotini so‘ngra shu ishlarni tarkib toptirib bosqichma-bosqich, asta-sekin bajarishni ko‘rsatib, o‘rgatib shu sohada ko‘nikmalarni bolada tarkib toptirib borish juda zarur va foydali.

Ota-onalar oila sharoitida bolaning yordamchi sifatida mehnatga ko‘niktirish, jalg qilish va o‘rgatish orqali bolani tarbiyalayotganini unutmasligi lozim. Ota-onalar bolaga oilada bajarayotgan ishlari yuzasidan nazariy bilimlarni berishdan boshlashi mehnat tarbiyasida asosiy o‘rinni egallaydi. Keyin esa nazariy bilimlarini mehnat qilishning u yoki bu turida amalda qo‘llash bilan bog‘liq ko‘nikmalarini tarkib toptirishga erishishi darkor. Ana shu ikki mehnatni ota-onalar bolada shakllantira olsa, uning mehnat tarbiysi o‘z vaqtida samarali amalga oshiriladi.

Qachonki, ota-onalar o‘z farzandlarining tarbiyalanganlik darajasini, ya’ni mehnat inson hayotining asosiligini va uni bajarishga tayyorgarligi, mehnat ko‘nikmasining tarkib topganligi, mehnatni bajarish xohishi va bajarayotgan mehnatga munosabatidagi individual xususiyatlarini hisobga olishlari darkor. Bu sohada ota-onalar o‘ta ziyrak va tadbirli bo‘lishlari maqsadga muvofiq.

Bizningcha, ota-onalar bolani mehnatga ko‘niktirish, jalg qilish va o‘rgatishda quyidagi bosqichlarda oila sharoitda bola mehnatini tashkil qilishlari mumkin. Shuning bilan birga bolani mehnatga tayyorlashga zamin yaratadi. Bundan albatta, bolalarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish kerak.

Birinchi bosqich, shu ishni bajarishdan ko‘zda tutilgan maqsad, bajarayotgan ishi nima uchun va kimlarga manfaat keltirishini, ya’ni oilasi va jamiyatdagi ijtimoiy ahamiyatini tushuntirish, anglatishidan iborat.

Ikkinci bosqich, ota-onalarning oilada bajarishi lozim bo‘lgan oila sharoitidagi biror ishni qisqa muddatda, asta-sekin, bosqichma-bosqich bajarib ko‘rsatishdan iborat. Masalan, ota o‘g‘liga daraxt ko‘chatini ekish uchun chuqurchani qanday kenglikda kovlab tayyorlab, ekish tartib-qoidasini yoki ona qiziga ovqatni tayyorlash jarayoni va uni tayyorlash uslubini bajarib ko‘rsatadi. Bu ko‘rsatmali tadbir bolani mehnatga o‘rgatishda hal qiluvchi rolъ o‘ynaydi, ya’ni bola kerakli tajriba o‘rganadi, mustaqil mehnatni bajarishga tayyorlanadi.

Uchinchi bosqichda, tarbiyaviy vazifasini ota-onalar oila sharoitida bajarilgan ishning oila iqtisodidagi o‘rni, muhimligi, ahamiyati, oila hayotini yaxshilashdagi o‘rni, roli va imkoniyatlarini tarbiyaviy jihatdan asoslashi va bola ongiga singdirishdan iborat, ya’ni bola o‘z mehnati orqali o‘z hayotini tashkil qilayotganligini anglaydi. Umuman, biror narsani bunyod qilish uchun mehnat qilish zarurligini uqadi.

Eng muhimi bola bajargan ishining oila a’zolariga foyda keltirishni, oila manfaatini amalga oshirishda o‘z hissasini qo‘shayotganligini tushunishi zarur.

To‘rtinchi bosqich, bola mehnatini baholashdan iborat. Mazkur bosqichda ota-onalar bolaning bajarayotgan ishini bevosita jonli kuzatib, qo‘lga kiritayotgan ilk yutug‘i ta’kidlab, tahlil qilib baholashdan iborat. Ota-ona bolaning bajarayotgan ishini yanada to‘g‘ri bajarish to‘g‘risida o‘z fikr va mulohazalarini aytib, unga kerakli maslahatlarni berib boradi.

Ota-onaning bunday ish uslubi bolani yana ishni to‘g‘ri bajarishga da’vat qiladi, unda mehnat qilish xohishini tarbiyalaydi. Muhimi bola u yoki bu mehnat ko‘nikmasini o‘zi mustaqil bajarishga o‘rganadi. Bu tadbir bolani mehnatga jalg qilish va o‘rgatishda asosiy o‘rin tutadi.

Ota-onalar bolalarni mehnatga ko‘niktirishda, jalg qilishda yuqoridagi bosqichlar va ko‘rsatilgan uslublar tarzida tashkil qilsalar, uning samaradorligini yanada ortadi.

Ota-onalarning oila sharoitida bolalar bilan birgalikda ishlashi ularni mehnatga ko‘niktirish, jalg qilish, o‘rgatishi mazkur oila an’anasining davom ettirishga qulay sharoit yaratadi. Bolalarning oila sharoitida ota-onalar bilan birga ishlashi, mehnatga ko‘niktirish, jalg qilish va o‘rgatishi unda quyidagi mehnat sifatlarini shakllantirishga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Bular:

- bolada bolaligidanoq mehnat qilish xohishini yuzaga keltiradi va tarbiyalaydi;
- bolada o‘z vaqtida mehnat ko‘nikmalarini shakllantirishga qulay sharoit yaratadi;
- bolani topshirilgan ishga mas’uliyatni his qilishga odatlantiradi;
- bola boshlagan ishni mustaqil bajarish va oxirigacha yakunlashga odatlanadi;
- mehnat sohasida olgan nazariy tushunchalarini amalda qo‘llashga imkon beradi va mustaqil ishni bajarishga o‘rgatadi;
- bajargan ishi o‘zi va oila a’zolari va jamiyat manfaatini nazarda tutilganligini hamda ijtimoiy ahamiyatini anglatadi va hokazo.

Ota-onalar oilada bolani mehnatga ko‘niktirish va jalg qilishda quyidagi pedagogik talablarga rioya qilsa, u kelajakda samarali natijalar beradi:

- bolani iloji boricha ertaroq mehnatga ko‘niktirish, jalg qilish, o‘rgatish;
- mehnat bolaning yosh, individual va jismoniy rivojlanishiga mos tashkil etilishi;
- mehnat uzoq muddat davom etmasligi, bolani zeriktirib, toliqtirib qo‘ymasligi;
- mehnat bolaga ta’lim-tarbiya berishni nazarda tutmog‘i;
- bajarilayotgan ish bolada qiziqishni yuzaga keltirishi va ixtiyoriy mehnat qilishga da’vat qilishi;
- oilada bolalar o‘rtasida mehnatni to‘g‘ri taqsimlay bilish;
- bolani mehnatga jalg qilishda maqol, hikmat va didaktik o‘yinlardan maqsadli foydalanish;
- bola mehnati ota-onalar tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi, o‘z vaqtida, o‘rnida rag‘batlantirib borilishi;
- mehnat bolada tashabbuskorlik, faollik, mustaqil ishslash va manfaat ko‘rishga olib kelishi hamda mulkka to‘g‘ri munosabatni shakllantirmog‘i;
- bola mehnati xilma-xil bo‘lishi va ota-onalar tomonidan tahlil qilinib, baholab borilishi;

- mehnat bolani kelajakda ishni puxta va sifatli bajarishga o‘rgatmog‘i;
- mehnat bolada aqliy va jismoniy mehnat turlariga ijobjiy munosabatini tarbiyalamog‘i;
- mehnat bolani fikrlashga, duch kelgan qiyinchiliklarni yengishda irodali bo‘lishga o‘rgatmog‘i va to‘g‘ri xulosa chiqarishga o‘rtagmog‘i lozim va hokazo.

Demak, oilada ota-onalarning bolani mehnatga ko‘niktirish, jalb qilish va o‘rgatish an’anasi unga oilada mehnat tarbiyasini berishning hamda komil insonni shakllantirishning, shuningdek, oila va ijtimoiy hayotga tayyorlashning bir tarkibi bo‘lib qolmog‘i darkor.

Shunday qilib, oilada bolalarni mehnatga jalb qilishga doir to‘plangan tajriba shuni ko‘rsatadiki, qaysi oilada bolalik davridanoq mehnatning xilma-xil turlariga ko‘niktirib, o‘rgatib, odatlantirib borilsa, o‘sha oilada bola kamolga yetganda ham mehnat faoliyatida samarali ishtirok etadi. Natijada bolaning mehnatga bo‘lgan qiziqishi tobora ortadi, rivojlanadi, mehnatga bo‘lgan muhabbati tarkib topadi, mehnat ahliga hurmati, ehtiromi shakllanadi. Asosiysi bola mehnat qilishdan qo‘rqmaydi, undan bosh tortmaydi, o‘zi, oilasi, mahallasi va millati uchun foydali, komil inson bo‘lib tarbiyalanadi. Muhimi, oilada, mehnat jamoasida o‘z o‘rnini topadi va farovon hayot kechirishga muvaffaq bo‘ladi. Shuning uchun ota-onalar o‘z bolalarini kelajak oila va ijtimoiy hayotga tayyorlashni oddiy mehnat ko‘nikmalarini o‘rgatib borishdan boshlashlari mehnat tarbiyasida hal qiluvchi o‘rin tutadi va uni komil inson qilib shakllantirishga zamin yaratadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbek pedagogikasi antologiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1995, 32-35-betlar.
2. Kaykovus. Qobusnomalar. – Toshkent: Meros, 1994, 118-bet.